

2026-yil 16-mart

PET-butilkalarni qayta ishlash bo'yicha jahon bozori 2033-yilgacha uch barobarga o'sishi mumkin

Jahon kimyo sanoati xabarлари

PET-butilkalarni qayta ishlash bo'yicha jahon bozori 2033-yilgacha uch barobarga o'sishi mumkin



uzkimyosanoat.uz



[@uzkimyosanoat](https://t.me/uzkimyosanoat)



[uzkimyosanoat.uz](https://www.instagram.com/uzkimyosanoat)



[uzkimyosanoat](https://www.facebook.com/uzkimyosanoat)



[@uzkimyosanoat](https://www.youtube.com/uzkimyosanoat)

Polietilentereftalat (PET) ning ikkilamchi ishlab chiqarish hajmi 2024-yildagi 24,8 mln tonnadan 2033-yilga kelib 81,4 mln tonnagacha oshishi kutilmoqda. Bu davrda o'rtacha yillik o'sish sur'ati (CAGR) 13,8% ni tashkil etadi. Bu haqda konsalting kompaniyasi Mark&Spark Solutions tahliliy hisobotida ma'lum qilingan.

2023-yilda jahonda PET-butilkalar chiqindilari hajmi 70 mln tonnaga yetgan, 2030-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 94 mln tonnagacha o'sishi mumkin. Biroq qayta ishlash darajasi hozircha past — taxminan 30% atrofida.

Tahlilchilar fikriga ko'ra, bozor o'sishining asosiy drayveri tartibga soluvchi chora-tadbirlar bo'ladi.

Ishlab chiqaruvchilarning kengaytirilgan mas'uliyati (EPR) tizimlari allaqachon 60 dan ortiq mamlakatda joriy etilgan. Yevropa Ittifoqi esa 2029-yilgacha plastik butilkalarning 90% ni alohida yig'ish maqsadini qo'ygan. Qayta ishlangan PETning eng katta iste'molchisi hanuzgacha to'qimachilik sanoati bo'lib qolmoqda — barcha qayta ishlangan xom ashyoning 40% i soha hissasiga to'g'ri kelmoqda. Yana 20% oziq-ovqat konteynerlari va butilkalar ishlab chiqarishda qo'llaniladi, 10% dan esa termoformalanuvchi listlar va PET-plyonkalar ishlab chiqarishga to'g'ri keladi. Qolgan 15% sanoat qadoqlash materiallari, qurilish materiallari va boshqa mahsulotlarga sarflanadi.

Hisobotga ko'ra, PETni qayta ishlash bo'yicha eng yirik hududlar Xitoy — yiliga 4,75 mln tonna, Yevropa — taxminan 3 mln tonna va AQSH — 2 mln tonna hisoblanadi.

Undan keyin Yaponiya, Hindiston, Janubiy Koreya, Lotin Amerikasi, Yaqin Sharq va Afrika keladi.

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/pet-butilkalarni-qayta-ishlash-bo-yicha-jahon-bozori-2033-yi>